12	<p><b>Маматова Н.Т., Ашуров А.А., Абдухакимов А.Б.</b> Важность теста Gene Xpert MTB/RIF в диагностике туберкулеза <b>Mamatova N.T., Ashurov A.A., Abduhakimov A.B.</b> The importance of the Gene Xpert MTB/RIF test in the diagnosis of tuberculosis <b>Mamatova N.T., Ashurov A.A., Abduhakimov A.B.</b> Tuberkulyoz diagnostikasida Gene Xpert MBT/RIF testing ahamiyati.....</p>	63
13	<p><b>Окбоев Т.А.</b> Значение Ig E в раннем выявлении и прогнозировании развития заболевания в семье у лиц с наследственной предрасположенностью к семейной бронхиальной астме <b>Okboyev T.A.</b> The importance of Ig E in the early detection and prediction of the development of the disease in the family in persons with a hereditary predisposition to familial bronchial asthma <b>Okboyev T. A.</b> Oilaviy bronxial astmaga irsiy moyil boʻlgan oiladagi shaxslarda kasallik rivojlanishini erta aniqlash va bashoratlashda IG E ahamiyati.....</p>	67
14	<p><b>Холжигитова М.Б., Убайдуллаева Н.Н., Расули Ф. О.</b> Клинические особенности хронической обструктивной болезни легких в зависимости от перенесенной COVID-19 <b>Kholjigitova M.B., Ubaidullaeva N.N., Rasuli F.O.</b> Clinical features of chronic obstructive pulmonary disease depending on the history of COVID-19 <b>Xoljigitova M.B., Ubaidullaeva N.N., Rasuli F.O.</b> COVID-19 oʻtkazgan surunkali obstruktiv oʻpka kasalligi boʻlgan bemorlarda klinik belgilarning oʻziga xos koʻrinishlari.....</p>	71
15	<p><b>Шавази Н.Н.</b> Оценка биохимических показателей у беременных с угрозой преждевременных родов <b>Shavazi N.N.</b> Assessment of biochemical indicators in pregnant women with threatening preterm labor <b>Shavazi N.N.</b> Erta tugʻilish xavfi boʻlgan homilador ayollarda biokimyoviy koʻrsatkichlarni baholash.....</p>	77
16	<p><b>Шамсутдинова Г.Б., Гадаева Н.А.</b> Влияние различных компонентов препаратов на дисфункцию эндотелия и функциональный резерв почек у пациентов с хронической сердечной недостаточностью <b>Shamsutdinova G.B., Gadaeva N.A.</b> Influence of drugs of various components on endothelial dysfunction and functional renal reserve in patients with chronic heart failure <b>Shamsutdinova G.B., Gadaeva N.A.</b> Surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarda turli tarkibli muolajalarining endotelial disfunktsiya va buyrak funksional zaxirasiga taʼsiri.....</p>	83
17	<p><b>Шодиккулова Г.З., Шагазатова Б.Х., Шоназарова Н.Х.</b> Лечение коморбидной патологии у больных ревматоидным артритом <b>Shodikulova G.Z., Shagazatova B.Kh., Shonazarova N.Kh.</b> Treatment of comorbid pathology in patients with rheumatoid arthritis <b>Shodikulova G.Z., Shagazatova B.X., Shonazarova N.X.</b> Rевматоид артрит bilan ogʻrigan bemorlarda komorbid patologiyani davolash.....</p>	87




**Шамсутдинова Гузель Баходировна**  
Ферганский медицинский институт  
общественного здравоохранения  
Фергана, Узбекистан

**Гадаева Нилуфар Абдигаффаровна**  
Ташкентская медицинская академия  
Ташкент, Узбекистан

### ВЛИЯНИЕ ПРЕПАРАТОВ РАЗЛИЧНЫХ КОМПОНЕНТОВ НА ДИСФУНКЦИЮ ЭНДОТЕЛИА И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ РЕЗЕРВ ПОЧЕК У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ

**For citation:** Shamsutdinova G.B., Gadaeva N.A. Influence of drugs of various components on endothelial dysfunction and functional renal reserve in patients with chronic heart failure. Journal of cardiorespiratory research. 2023, vol 4, issue 3, pp.83-86

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10052896>

#### АННОТАЦИЯ

В статье изучено взаимное сравнение влияния стандартных медикаментозных методов различного содержания на эндотелиальную дисфункцию и функциональный резерв почек у больных хронической сердечной недостаточностью. Полученные результаты показали высокое ( $p < 0,001$ ) достоверное снижение уровня гомоцистеина после лечения в группе пациентов, получавших стандартное лечение, включающее дапаглифлозин (Форсига) – ингибитор котранспортера глюкозы-натрия 2-го типа, который связано со стабилизирующим действием препарата на эндотелиальную дисфункцию. Также значительное ( $p < 0,05$ ) увеличение функционального резерва почек после лечения подтверждает эффективное влияние препарата на фиброзные процессы в почках.

**Ключевые слова:** хроническая сердечная недостаточность, гомоцистеин, дапаглифлозин, скорость клубочковой фильтрации, функциональный резерв почек.

**Shamsutdinova Guzel Bahodirovna**  
Fergana Medical Institute  
of public health  
Fergana, Uzbekistan

**Gadaeva Nilyufar Abdigaffarovna**  
Tashkent Medical Academy  
Tashkent, Uzbekistan

### INFLUENCE OF DRUGS OF VARIOUS COMPONENTS ON ENDOTHELIAL DYSFUNCTION AND FUNCTIONAL RENAL RESERVE IN PATIENTS WITH CHRONIC HEART FAILURE

#### ANNOTATION

The article examines a mutual comparison of the effects of standard medicinal methods of various contents on endothelial dysfunction and functional reserve of the kidneys in patients with chronic heart failure. The results showed a high ( $p < 0.001$ ) significant reduction in homocysteine levels after treatment in the group of patients receiving standard treatment, including dapagliflozin (Forsiga), an inhibitor of sodium glucose cotransporter type 2, which is associated with the stabilizing effect of the drug on endothelial dysfunction. Also, a significant ( $p < 0.05$ ) increase in the functional reserve of the kidneys after treatment confirms the effective effect of the drug on fibrotic processes in kidneys.

**Keywords:** chronic heart failure, homocysteine, dapagliflozin, glomerular filtration rate, renal functional reserve.

**Shamsutdinova Guzel Bahodirovna**  
Farg'ona jamoat salomatligi  
tibbiyot instituti  
Farg'ona, O'zbekiston

**Gadaeva Nilyufar Abdigaffarovna**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Toshkent, O'zbekiston

### SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI MAVJUD BEMORLARDA TURLI TARKIBLI MUOLAJALARINING ENDOTELIAL DISFUNKTSIYA VA BUYRAK FUNKSIONAL ZAXIRASIGA TA'SIRI

Maqolada surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarda turli tarkibli standart davo muolajalarining endotelial disfunktsiya va buyraklar funksional zahirasiga taʼsiri oʻzaro solishtirma oʻrganilgan. Olingan natijalar tarkibida glyukoza natriy kotransporti 2-tip ingibitori dapagliflozin (forsiga) boʻlgan standart davo qabul qilgan guruh bemorlarda gomotsistein koʻrsatkichlarining muolajalardan soʻng yuqori ( $R < 0.001$ ) ishonchli kamayishi preparatning endotelial disfunktsiyasini barqarorlovchi taʼsiri bilan bogʻliq. Shuningdek, buyraklar funksional zahirasining muolajalarning soʻng ishonchli ( $R < 0.05$ ) oshishi preparatning buyrakdagi fibroz jarayonlariga samarali taʼsir etishini tasdiqlaydi.

**Kalit soʻzlar:** surunkali yurak yetishmovchiligi, gomotsistein, dapagliflozin, koptokchalar filtratsiyasi tezligi, buyrak funksional zahirasi.

Surunkali yurak yetishmovchiligi zamonaviy tibbiyotning dolzarb tibbiy-sotsial muammolaridan biri hisoblanadi [8, 11, 21]. Bu uning keng tarqalganligi, oʻta ogʻir oqibatlariga olib kelishi va davolash uchun katta mablagʻlar talab qilinishi bilan bogʻliq [3].

Epidemiologik maʼlumotlarga koʻra 16 yil ichida (1998-2014 yillar) dunyoda SYuE bilan ogʻirgan bemorlar soni 18% dan yana 3,1% ga (4,5 million kishiga) koʻpaygan [10, 9]. Rossiya Federatsiyasida 2003-2006 yillardagi (ЭПОХА – XCH, ЭПОХА –O- XCH) kuzatuvlarga koʻra umumiy populyatsiyada 7-10 % ga teng [10].

Koʻp hollarda yosh ulgʻayib borgan sari SYuE chalingan bemorlar sonining koʻpayishi qayd etilgan. Dunyo aholisi populyatsiyasida SYuE 2,1 % aholi orasida tarqalgan. AQShda bu raqamlar 1,0–1,5 % va yoshi 60 dan yuqori boʻlganlar orasida 10% ni tashkil etadi [6, 19]. Respublikamizda yurak qon–tomir kasalliklari va uning asoratlaridan nogironlik va oʻlim koʻrsatkichlari 2019 yil maʼlumotlariga koʻra 59 - 60 % ni tashkil etadi.

Maʼlumki, SYuE barcha aʼzolarida tizimli oʻzgarishlar kuzatiladi va unda yurakdagi remodelanish jarayonlari alohida ahamiyatga ega [5]. Unda miokarddagi oʻzgarishlar bilan bir qatorda boshqa aʼzolar disfunktsiyasi ham bemorlarning hayot davomiyligi taʼsiri boʻyicha alohida ahamiyatga ega. Ular orasida buyraklarning zararlanishi yetakchi oʻrin tutadi [14, 22, 12].

18634 bemorlarni qamrab olgan 8 klinik tekshiruvlarning metatahlili xulosalarida SYuE da buyraklar faoliyatining buzilishi 25% ga borib yetishi va ushbu holatlarda oʻlim yuz berish ehtimoli 67 % hamda qayta shifoxonaga yotishlar soni 30% oshishi qayd etilgan [14].

Shuningdek, SYuE buyrakdagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash muhim ahamiyatga ega ekanligi bir muncha oldin oʻtkazilgan qator boshqa yirik kuzatuvlarda ham oʻz isbotini topgan. N.S. Anevar hamda uning hamkasblari tomonidan oʻtkazilgan boʻlib, unda miokard infarkti bilan ogʻirgan va SYuE bilan asoratlangan 14527 bemorlarni koptokchalar filtratsiyasi (KF) koʻrsatkichlari (Valsartan in Acute MI Triac) baholangan. Unga koʻra 1,73 m2 tana yuzasiga bir daqiqada koptokchalar filtratsiyasini 81 ml boʻlib bemorlarni undan keyin olgan muolajalaridan qatʼiy nazar oʻlim koʻrsatkichlarining nisbiy havfi hamda fatal boʻlmagan yurak –tomir hodisalari uchrashi 10% ga koʻpaygan. Olingan natijalar asosida mualliflar miokard infarkti oʻtkazgan SYuE mavjud bemorlardagi buyraklar faoliyatini har qanday buzilishini boshqa xavf omillariga bogʻliq boʻlmagan yengil aniqlanadigan yurak qon – tomir kasalliklari asoratlarining kuchli prediktori sifatida qarash lozim degan xulosaga kelishgan [16].

Ayrim mualliflarning fikriga koʻra buyraklarning funksional holatini SYuE zoʻrayishini mediator sifatida qarash lozim [15, 18, 17]. SYuE mavjud bemorlarda buyraklar disfunktsiyasini hamda turli yuklamalar yordamida buyraklar funksional zahirasini aniqlash ushbu guruh bemorlarni davolashda muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda qator kasalliklar, xususan, yuraq-qon tomir kaslliklari rivojlanishida ham endotelial disfunktsiyasi muhim ahamiyatga ega. Giperoxolesterinemiya, arterial gipertenziya (AG), qandli diabet, chekish, gipergomotsistemiyani endotelial disfunktsiya rivojlanishida yetakchi oʻrin tutadi [13].

Qator tekshiruvlarga koʻra gomotsistein yurak qon – tomir kasalliklari rivojlanishining mustaqil havf omillaridan biri hisoblanadi [2]. Qonda uning konsentratsiyasini oshishi tomirlar reaktivligini susayishi bilan namoyon boʻladi. Gipergomotsistemiyani nishon aʼzolarini, shu jumladan, yurak qon – tomir tizimini zararlanishi patogenezida muhim rol oʻynaydi va aksariyat hollarda endotelial disfunktsiyasini chaqirib SYuE rivojlanishida yetakchi oʻrin tutadi [7].

SYuE nisbatan ijobiy kechgan bemorlarda prospektiv kuzatuv oxirida gomotsistein pasayishi kuzatilgan, aksincha uning ogʻirlashib borishida u ishonchli ( $P < 0.01$ ) yuqorilgicha qolgan. Buni boshqa qator mualliflarining miokard infarkti oʻtkazgan va SYuE

mavjud bemorlarda gomotsisteinemiya yuqori boʻlishi xaqidagi fikrlari ham tasdiqlaydi [20]. Demak gipergomotsistemiyani yurak ishemik kasalligi (YuIK) negizida rivojlangan SYuE patogenezida va zoʻrayib borishida muhim rol oʻynaydi. SYuE mavjud bemorlar qonida gomotsisteinemiya koʻrsatkichlarini aniqlash, nafaqat kasallik ogʻirlik darajasini, balki oʻzoq muddatda uning kechishini bashoratlash imkoniyatini ham yaratadi. Chunki nisbatan kam oʻrganilgan va modifitsirlangan xavf omili deb qaralayotgan gomotsisteinemiya kuzatuvida SYuE davolashda qoʻllaniladigan samarasi isbotlangan dorilar taʼsirini oʻrganishda undan nishon sifatida ham foydalanish mumkin [4].

**Tadqiqotning maqsadi.** Surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarda turli tarkibli muolajalarining endotelial disfunktsiya va buyrak funksional zahirasiga taʼsirini oʻrganish.

**Tadqiqod materiallari va uslublari.** Ushbu ilmiy tadqiqot ishi 2022 va 2023 yillarda Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va “Farovon” xususiy klinikasida davolangan, YuIK va arterial gipertenziya (AG) negizida rivojlangan SYuE mavjud 120 nafar bemorlarda olib borildi. Ular oʻz navbatida oʻtkazilgan davo muolajalaridan kelib chiqib uchta guruhlarga boʻlib oʻrganildi. Har bir guruhni 20 tadan SYuE II va III FS lardan iborat boʻlgan 40 nafar bemor tashkil etdilar. Birinchi guruh bemorlarning oʻrtacha yoshi  $66,1 \pm 1,8$  ga teng boʻlib, erkaklar 21 (52,5%) va ayollar 19 (47,5%) ni tashkil etdi. Kuzatuvdagi bemorlarning I guruhida miokard infarkti (MI) oʻtkazganlar soni - 28 (70%), aorta koronar shuntlash (AKSh) yoki stentlash amaliyoti oʻtkazganlar - 11 (27,5%), ritm buzilishi va blokadalar qayd etilganlar - 12 (30%), AG mavjudlar 31 (77,5%), turli darajadagi semizlik aniqlanganlar -17 (42,5%), kamqonlik kuzatilganlar-21 (52,5%) nafarni tashkil etdi. Ushbu guruhga SYuE ning standart davosi sifatida  $\beta$  blokatorlar + angiotenzin aylantiruvchi ferment ingibitorlari (AAFI) yoki angiotenzin retseptorlari blokatorlari (ARB) +mineralokortikoid retseptorlari antagonistlari (MRKA)-veroshpiron buyurildi. Ikkinchi guruh bemorlarning oʻrtacha yoshi  $65,9 \pm 1,5$ , erkaklar 24 (60%) va ayollar 16 (40%) dan iborat boʻldi. Bu guruhda MI oʻtkazganlar soni - 25 (62,5%), AKSh yoki stentlash amaliyoti oʻtkazganlar - 13 (32,5%), ritm buzilishi va blokadalar qayd etilganlar-15 (37,5%), AG mavjudlar 27 (67,5%), turli darajadagi semizlik aniqlanganlar -16 (40%), kamqonlik kuzatilganlar-19 (47,5%) nafardan iborat boʻldi. Ular tarkibida  $\beta$  blokatorlar+sukubitril-valsartan (yuperio)+MRKA-veroshpiron boʻlgan standart davo qabul qildilar. Uchinchi guruh bemorlarning oʻrtacha yoshi  $64,7 \pm 1,3$  ga teng boʻlib, ularning 21 (52,5%) nafari erkaklar va 19 (47,5%) nafari ayollar edi. Bu guruhda MI oʻtkazganlar soni-27 (67,5%), aorta koronar shuntlash AKSh yoki stentlash amaliyoti oʻtkazganlar-16 (40%), ritm buzilishi va blokadalar qayd etilganlar-17 (42,5%), AG mavjudlar 25 (62,5%), turli darajadagi semizlik aniqlanganlar -15 (37,5%), kamqonlik kuzatilganlar-19 (47,5%) nafarni tashkil etdi. Ushbu bemorlarga  $\beta$  blokatorlar + sukubitril-valsartan (yuperio)+ MRKA-veroshpiron+ glyukoza – natriy ko-transporteri 2 tip ingibitorlari (dapagliflozin/forsiga) preparatlari tavsiya qilindi.

Tadqiqotga jalb etilgan barcha kuzatuvdagilarda muolajalar boshlanishidan oldin va undan 6 oy oʻtgandan keyin umumqabul qilingan laborator tekshiruvlar oʻtkazildi, qon zardobidagi gomotsistein koʻrsatkichlari, koptokchalar filtratsiyasi tezligi va buyrak funksional zahirasi baholandi.


**Qon zardobidagi gomotsistein miqdori** “DRG Gomotsistein ELISA” (AQSh) reagentlaridan foydalanilgan xolatda immunoferment taxlili yordamida aniqlandi. Tadqiqotda qon zardobidagi gomotsisteinni aniqlashda foydalanilgan reagent tekshirish oraliq 60 yoshdan kichik yoshdagilar uchun 5,0 - 15 mkmolʼ/ml, 60 yoshdan kattalar uchun 5,0 - 50 mkmolʼ/ml ni, sezgirligi 1,0 mkmolʼ/ml ni, referens koʻrsatkich 3,7-13,9 mkmolʼ/l ni tashkil etdi.

**Tadqiqot natijalari tahlili va muhokamasi.** Hozirgi kunda qator tadqiqotlarda qon zardobidagi gomotsisteinni endotelial disfunktsiyasining ishonchli markerlaridan biri sifatida qo'llash tavsiya etilmoqda. SYuE mavjud bemorlarda tomirlar endoteliosi disfunktsiyasi darajasini aniqlash va uni barqarorlashtirish davo muolajalarining bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun biz o'z tadqiqotimizda turli tarkibli

standart davo muolajalarining bemorlar qon zardobidagi gomotsistein ko'rsatgichlarga ta'sirini o'rgandik.

Har bir guruhda II va III FS dagi bemorlar bir xil sonda bo'lishi hamda ularning representivligiga alohida e'tibor qilindi.

Tadqiqotga jalb qilingan bemorlardagi gomotsistein ko'rsatgichlarining muolajalardan oldin va keyingi solishtirma tahlili quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. Surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarda gomotsistein ko'rsatgichlarining muolajalardan oldingi va keyingi solishtirma tahlili (mkmol/l).**



Izoh: \* - davodan oldingi hamda keyingi ko'rsatgichlar farqi ishonchligi: \* -  $r < 0,05$ , \*\* -  $r < 0,01$ , \*\*\* $r < 0,001$ .

Gomotsistein ko'rsatgichlari guruhlar o'rtasida muolajalardan oldin o'zaro solishtirma o'rganilganda ishonchli farq ( $R > 0,05$ ) aniqlanmadi.

Birinchi guruh bemorlarda qon zardobida gomotsistein miqdori muolajalardan keyin  $16.7 \pm 1.2$  mkmol/l dan  $11.6 \pm 1.3$  mkmol/l ga, 1.5 marotaba kamaydi va ishonchli ( $r < 0,01$ ) farq qayd etildi. Ikkinchi guruh bemorlarda esa uning miqdori muolajalardan oldin  $15.8 \pm 1.4$  mkmol/l va keyin  $10.8 \pm 1.6$  mkmol/l ga teng bo'lib, 1.4 marotaba ishonchli pasaydi ( $r < 0,05$ ). Gomotsistein ko'rsatgichlari uchinchi guruh bemorlarda  $16.4 \pm 1.4$  mkmol/l dan  $9.2 \pm 0.9$  mkmol/l ga, 1.8 marotaba kamaydi va yuqori ishonchli ( $r < 0,001$ ) farq kuzatildi.

Uchinchi guruh bemorlarda qon zardobida gomotsistein miqdorining muolajalarning so'ng yuqori ishonchli kamayishini standart davo tarkibidagi dapagliflozin (forsiga)ning tomirlardagi endotelial disfunktsiyani samarali barqarorlashtirishini tasdiqlaydi.

Surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarda buyraklardagi o'zgarishlarni aniqlash va ularni monand davolash muhim ahamiyatga ega. Shuni inobatga olib biz bemorlarimizda buyraklar faoliyatini ham o'rganib, har bir guruhda buyirilgan dori preparatlarining buyraklar funksional zahirasiga (BFZ) ta'sirini solishtirma baholadik. Quyidagi 2-rasmda olingan natijalar keltirilgan.



**2-rasm. Surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarda buyraklar funksional zahirasining muolajalardan oldingi va keyingi solishtirma tahlili (%).**



Izoh: \* - davodan oldingi hamda keyingi ko'rsatgichlar farqi ishonchligi: \* -  $r < 0,05$ , \*\* -  $r < 0,01$ , \*\*\* $r < 0,001$ .

Buyraklar funktsional zahirasi ko'rsatgichlari barcha guruh bemorlarda muolajalardan oldin mos ravishda  $4,5 \pm 0,2$  %,  $4,4 \pm 0,5$  va  $4,3 \pm 0,3$  ekanligi ya'ni zahira mavjud emasligi aniqlandi. Olib borilgan muolajalar va olti oylik prospektiv kuzatuvdan so'ng ularda BFZ ko'rsatgichlari aniqlanganda quyidagi o'zgarishlar qayd etildi: birinchi guruhda 1.08 marotaba ( $4.9 \pm 0.3\%$ ) ga oshgan bo'lsa ham zahira paydo bo'lmadi ( $r > 0.05$ ); ikkinchi guruhda  $5.2 \pm 0.3\%$  ga sezilarli oshib zahira paydo bo'ldi, ammo ishonchli farq ( $r > 0.05$ ) kuzatilmadi; ichinchi guruhda esa uning darajasi  $5.4 \pm 0.4$  % ga 1,25 marotaba oshdi hamda ishonchli farq ( $r < 0,05$ ) aniqlandi. Ushbu guruh bemorlarda BFZ ning

ishonchli oshishi glyukoza natriy kotransportori 2 tip ingibitori vakili-dapagliflozinning antifibroz ta'sir ko'rsatib buyraklar funktsional holatini yaxshilashini tasdiqlaydi.

Xulosa. Muolajalardan keyin barcha guruh bemorlarda gomotsistein ko'rsatgichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Lekin uchinchi guruhda uning ko'rsatgichlarning yuqori ishonchli darajada o'zgarishlari dapagliflozin (forsiga)ning endotelial disfunktsiyaga samarali ta'sirini tasdiqlaydi. Shuningdek, dapagliflozin preparati buyrak faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib uning funktsional zahirasini yaxshilab uning nefroprotektiv ta'sir ko'rsatishini ham isbotlaydi.

## Список литературы / References / Iqriboslar

1. Белоусов Ю.Б., Белялов Ф.И. Лечение внутренних болезней в условиях коморбидности : моногр. / Ф. И. Белялов. – 8-е изд. – Иркутск : РИО ИГИУВа, 2012. – 285 с.
2. Баранова ЕИ, Большакова ОО. Клиническое значение гипергомоцистеинемии. Артериальная гипертензия 2004; 10(1): 12-15.
3. Батюшин М.М., Врублевская Н.С. Клинические проявления поражения почек при хронической сердечной недостаточности. Нефрология. 2010;14(4):27-30.
4. Березикова Е. Н., Пустоветова М. Г., Шилов С. Н., Ефремов А. В., Тепляков А. Т., Сафронов И. Д., Самсонова Е. Н. Прогностическая роль метаболического фактора риска (гипергомоцистеинемии) в развитии хронической сердечной недостаточности. Патология кровообращения и кардиохирургия, 18 (1), (2014). 20-25.
5. Васюк ЮА. Возможности и ограничения эхокардиографического исследования в оценке ремоделирования левого желудочка при ХСН. Сердечная недостаточность 2003; 4(2):107-1103.
6. Гуревич М.А. Хроническая сердечная недостаточность: руководство для врачей / М.А. Гуревич. - М.: Практическая медицина, 2008. - 413 с.
7. Дзяк Г.В., Коваль Е.А., Каплан П.А. // Международный медицинский журнал. 2004. № 1. С. 15–14.
8. Драпкина О.М., Зятенкова Е.В. Поражение почек у пациентов с хронической сердечной недостаточностью и стеатозом печени. Кардиоваскулярная терапия и профилактика, 15 (1), (2016), 26-30.
9. Клинические рекомендации. Хроническая сердечная недостаточность (ХСН), 2016. Общество специалистов по сердечной недостаточности, Российское кардиологическое общество.
10. Мареев В.Ю., Фомин И.В., Агеев Ф.Т. и др. Клинические рекомендации ОССН — РКО — РНМОТ. Сердечная недостаточность: хроническая и острая декомпенсированная. Диагностика, профилактика и лечение. Кардиология. 2018;58(6S):8–158. DOI: 10.18087/cardio.2475.
11. Общество специалистов по сердечной недостаточности, Российское кардиологическое общество. Клинические рекомендации. Хроническая сердечная недостаточность (ХСН). М., 2016; 92с.
12. Окунев И.М., Кочергина А.М., Кашталап В.В. Комплексная оценка приверженности медикаментозной терапии у пациентов с острой декомпенсацией сердечной недостаточности по данным разных опросников. РМЖ. Медицинское обозрение. №1 от 25.03.2022 стр. 39-44.
13. Петрищев НН, Власов ТД. Физиология и патофизиология эндотелия. В: Петрищев НН, ред. Дисфункция эндотелия. Причины, механизмы, фармакологическая коррекция. Изд-во СПбГМУ, СПб., 2003; 4-38.
14. Сторожаков ГИ. Основные направления в лечении больных с хронической сердечной недостаточностью (руководство для врачей терапевтов врачей общей практики). М., 2008; 312.
15. Сторожаков Г.И., Гендлин Г.Е., Резник Е.В. Болеет сердце – страдают почки: кардиоренальный синдром при хронической сердечной недостаточности // Лечебное дело.– 2009.– № 1.– С. 27-36.
16. Anavekar NS, McMurray JJ, Velazquez EJ et al. Relation between renal dysfunction and cardiovascular outcomes after myocardial infarction. N Engl J Med 2004; 351:1285-1295.
17. Burnett J.C., Jr. Costello-Boerrigter L.C., Boerrigter G. Alterations in the Kidney in Heart Failure: The Cardiorenal Axis in the Regulation of Sodium Homeostasis // In: Heart Failure // Mann D.L., eds.– Saunders. Philadelphia, Pennsylvania.– 2004.– P.279-289.
18. Dries D.L., Exner D.V., Domanski M.J., et al. The prognostic implications of renal insufficiency in asymptomatic and symptomatic patients with left ventricular systolic dysfunction // J. Am. Coll. Cardiol.– 2000.– Vol. 35 (3).– P. 681-689.
19. Ефремова Е.В., Шутом А.М., Бородулина Е.О. Проблема коморбидности при хронической сердечной недостаточности / Ульяновский медико-биологический журнал. № 4, 2015, стр 47-53.
20. Okuyan E. et al. // Cardiology. 2010. V. 117. P. 21–27., Washio T., Nomoto K., Watanabe I. et al. // Int. Heart J. 2011. V. 52. P. 224–228.
21. Reibis R., Jannowitz C., Halle M., Pittrow D., Gitt A., Völler H. Management and outcomes of patients with reduced ejection fraction after acute myocardial infarction in cardiac rehabilitation centers. Curr Med Res Opin 2015; 31(2): 211–219.
22. Shiba N, Shimokawa H. Хроническая болезнь почек и сердечная недостаточность - двунаправленная тесная связь и общая терапевтическая цель. J Cardiol. 2011 Jan;57(1): 8-

# ЖУРНАЛ КАРДИОРЕСПИРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 4, НОМЕР 3

## JOURNAL OF CARDIORESPIRATORY RESEARCH

VOLUME 4, ISSUE 3

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000